

## LISONIY BIRLIKLARNING ASKIYA JANRI TARAQQIYOTIGA TA'SIRI MASALASI

**Xaitov Xamza Axmadovich**  
BuxDPI dotsenti, f.f.f.d.(PhD).

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodining askiya janri va zamonaviy o'zbek adabiyotining badiiy taraqqiyotiga lingvistik hodisalarning, lisoniy birliklarning estetik ta'siri masalasi ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** fonostilistik usul, tovush almashtirish, tovush orttirish, tovush tushirish, aralash turdagi tovush o'zgartirish, urg'u, leksik usul shakdosh, zid ma'noli so'zlar, barqaror birikmalar, o'xshatish, metafora, ramzlar, morfologik usul va hokazo.

Askiya matnini tahlil qilish jarayonida fonetik birliklarning estetik xususiyatlariga alohida e'tibor qaratish nutq tovushlarining badiiy imkoniyatlarini tez va qulay idrok etishga yordam beradi. Chunki askiya matnida o'ziga xos fonostilistik o'yin kuzatilib, u askiyachilar nutqida pragmatik ta'sir yoki pragmatik hujum vositasiga aylanadi.

Shu tariqa askiyada fonostilistik vositalarning rang-barang ko'rinishlari kuchli ekspressiv ta'sir vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Ko'p hollarda subektiv baho ifodalovchi lisoniy birliklar askiyada bir qancha lingvistik hodisalarni qamrab oladi. Bunday lingvistik hodisalar qatoriga supersegment elementlar; ohang, pauza, urg'u, shuningdek, omonim, omofon, omograf, ko'chim, ko'p ma'noli so'zlarni kiritish mumkin. Mazkur hodisalarning bir nechtasi askiyachi nutqida bir paytning o'zida ifodalanishi mumkin. Bu holat lingvistik hodisalarning izohi va tahlili masalasida bir muncha qiyinchiliklar tug'diradi. Askiya ijrosida aytilayotgan fikr birovning shaxsiyatiga tegib ketmasligiga alohida e'tibor qaratilgan. Buning uchun har bir so'z va iborani ishlatishda ijrochi nihoyatda ehtiyotkorlikka rioya qilgan. Askiya aytishuvidan faqat askiyachilar emas, balki ularni tinglab, tomosha qilib turganlar ham cheksiz zavq tuyadilar. Chunki askiya kishi ruhiga, tasavvur va tafakkuriga tezda ta'sir etadi. Shu sabablarga ko'ra askiyachi o'zbek tilining boy va keng imkoniyatlaridan ma'lum darajada xabardor bo'lishi zarur. Fikrimizni quyidagi askiya misolida asoslaymiz, bunda fonostilistik aloqa usulining bo'lishish va birlashish hamda har ikkala holatning yuzaga chiqishini ko'rish mumkin.

Mamaroziq aka: Endi meva- chevalar mo'l- ko'l bo'lib qoldi, yeyavering, ilgari anor xonga berilardi.

G'oyib aka: Bizga anorni ko'rsatib ol murid demang.

Mamaroziq aka: Boqqa zap kelib qolibsiz, nima xohlasangiz o'shandan olavering, bag'I dehqonchilik- ol Hirotdan kelgani yo'q.

G'oyib aka: Mehmon Hirotdan kelgan deb, joniga qo'ymay qistayversangiz –a: ol-ich-a, ol-ich-a deb.

G'oyib aka: Bog'bon aka gapingiz jiyda cho'pga o'xshaydi, qani ishkomb joyga o'taylik.

Mamaroziq aka: Ish kam deb yumaloq bo'lib yotib olsangiz-a ?! anorxonga birikmasi va ol murid birligida ular garchi ajratib yozilgan bo'lsada nutqda fonostilistik aloqa usulining bo'linish va birlashish holati o'z ifodasini topayotganligi pragmatic kontekstda oydinlashadi. Yani pragmatik kontekstda shakl va mazmun jihatdan meva-chevalar Anorxonga ham berilishi, anor esa xonga berilishi ham birdek nazarda tutilganligining ifodasi ayon bo'lmoqda. Demak bu usullarni aniqlashda gapning mazmuniy va shakily ifodasini e'tiborga olish lozim. Ol-icha, ol-icha so'zlarida esa, birlashtirish birinchi planga chiqqan. Buni aniqlash biro z mushkul bo'lsada ( olisha-ol-icha-ot-fe'lmi, olcha- fe'l-otmi) pragmatik kontekstning shakily mazmuni harakatni ifodalayotganligi, harakat sememasi birinchi planga chiqayotganini e'tiborga olib, birlashtirish usuliga aloqador deb hisoblash mumkin. Birliklarni semik tahlilga tortsak, ular quyidagi ma'nolarda ishlatilganligi ma'lum bo'ladi: Anorxon- ayol kishining nomi, unga qo'shilgan xon hurmat ma'nosida. Anorxon- anordoshlarga mansub, kichikroq daraxt yoki buta shaklidagi supturopik o'simlikning ichi qizil donalar bilan to'liq yumaloq mevasi. Xon- turkiy va mo'g'ul xalqlari hukmdorlari unvoni{1.b-87}. Ol murid – narsani ushlab yoki biror narsa bilan qo'lga kiritmoq ma'nosidagi olmoq fe'libilan murid –arabcha diniy atama,"ruhoniy, ustoz, eshon, pining shogirdi, muxlisi" ma'nosida. Olmurut-shevaga xos nok. Ol-icha- narsani ushlab yoki biror narsa bilan qo'lga kiritmoq ma'nosidagi olmoq fe'li bilan suyuqlikni ho'plab yoki shimarib ichga yutmoq, tanovul qilmoq. Olcha atirgullar oilasiga mansub mevali daraxtning danakli, yumaloq, nordon mevasini ifodalovchi fors-tojikcha so'z. Bundan tashqari ol murid-olmurut so'zida tovush almashishi, ol-icha va olcha so'zida tovush ortishi hodisasini kuzatish mumkin. Bundan ko'rinadiki, askiya nafaqat so'z o'yini balki so'zlarni to'g'ri anglagan holda o'z navbatida toyish o'yinihamdir. Muayyan mavzu doirasida mantiqiy- izchil fikrlash, zehn ishlatish, so'zni idrok etish, to'satdan aytilgan fikrga maxsus tayyorgarliksiz to'g'ri javob yo'llash mahorati askiya janrining o'ziga xos xususiyati va unda g'olibni aniqlash shartidir. G'oyib aka nutqida jiyda cho'p- bargi uzun, guli xushbo'y, mevali daraxt{2.b-533}. shoxining bo'lagini ifodalash bilan birga, nutqda aslida juda-ravish turkumiga mansub ortiq, nihoyat darajada, haddan tashqari, g'oyat, nihoyatda, benihoya so'zlariga sinonim sifatida ishlatilib, cho'p so'zi

bilan birga so'zlashuv nutqida juda yolg'on, cho'pchak(to'qima afsona) pressuppozitsiya tag ma'no ishora etilayotganligi oydinlashmoqda. Ishkom – so'zi toklarni ko'tarib qo'yish uchun poya va bag'azlardan qurilgan arksimon so'ri. Hamda tovush o'zgarishiga uchragan ish kam (mehnat miqdorining ozligi) ma'nosida ishlatilgan. So'zning bu ma'nosi esa Mamaroziq aka nutqida aynan ish kam tarzida yanada ochib beriladi. Shu bilan birga, uning kontekstdagi vazifasi ham ancha ortadi. Shuningdek, ushbu so'z individual –stilistik neologizm sifatida fors-tojik tilidagi ishkam- qorin(ziyofat) ma'nosida ham qo'llanilgan. Xuddi shunday omonimik xususiyatga ega bo'lgan so'zlardan foydalanib kulgi chiqarish usullari badiiy asarlarda ham juda ko'p uchraydi;

-Ha, urmaysanmi, qiztaloqni, stolni pachoqlab tashlaysan, hozir! Erkin aka o'rnidan turib ketdi.Hamma gurr etib kulib yubordi. To'g'ri-da, boshqalar o'yinga azbaroyi berilganidan zavq-shavq bilan “ur-ur”desa, bilyardning egasi –Erkin akaning “ur-ur” deyishi boshqa ma'noda- toshi og'ir Rashidning tezroq stoldan gavdasini ko'tarishiga qaratilgan edi.

-Farosatlaringga balli, -xayolidan o'tkazdi Yusuf{3.b-83}.

Roman parchasida ifodalangan “ur-ur” so'zi badiiy obraz nutqi jarayonida omonimik xususiyat kasb etgan va kulgi ifodalanishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Bilyard stoliga engashib turgan holatga nisbatan va bilyard toshlariga qarata aytilgan “ur-ur” so'zi omonimik xususiyatga ega ekanligi bilan yumorga sabab bo'lgan.

Yuqoridagi askiyalardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, askiyaga asoslangan dialoglar fikr tizimini izchil ravishda mantiqiy yakuniga etkazish, badihago'ylik mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Askiyada harakat vositalariga, so'z qo'llashga, muloqot jarayonidagi tezkorlikka alohida e'tibor beriladi.Askiyada so'zlovchilar so'z o'yinini yuzaga chiqarishda turli usul va vositalardan keng foydalanib, o'z nutqini rang-barang tarzda, mushohadali va rang –barang berishga e'tibor qaratadilar. Askiya so'z o'yini bo'lishi bilan bir qatorda til hodisalari o'yinihamdir. Boshqacha autganda askiya til boyligi o'ziga xosligini namoyon qiluvchi, til birliklari va til hodisalarining turli xil ifoda imkoniyatlarini matnda mujassamlashtira oladigan badiiy so'z o'yinidir. Asarlar tarkibida askiyalar dialog asosida keltiriladi. Ularda lisoniy birliklarning nitqiy voqelanish imkoniyatlari to'la namoyon bo'ladi. Lisoniy birliklardan uddabronlik bilan turli kombinatsiyalar yaratiladi. Biz yuqorida keltirganimizdek so'zlarni o'z ma'nolaridan ko'ra ko'chma ma'nolaridan ko'p foydalaniladi. So'zni “o'ynata” bilish, hozirjavoblik, ekspromt, so'zamollik, badihago'ylik va zukkolikka katta ahamiyat qaratiladi. Aks holda bellashuvchi “raqibi”dan yengiladi.

Askiyaga asoslangan matn ko'pincha yumoristik matn sifatida namoyon bo'ladi. Unda so'z o'yini, badihago'ylik, teatrlik, sintetizm, komizm, musoboqalilik, sahnaviylik, ko'p talqinli sharhga egalik, milliy-madaniy o'ziga xoslik uyg'unlashib ketadi. Askiya tilida iyhom, tajnis, annominatsiya san'ati yetakchilik qiladi. O'zakdosh so'zlarni turli shakllarda qo'llashdan so'z o'yini hosil qilinadi. Biz yuqorida keltirib o'tgan misollar kabi so'z o'yinlari hosil qilish uchun fonostilistik usul va vositalar (tovush almashtirish, tovush orttirish, tovush tushitirish, aralash turdagi tovush o'zgartirish, urg'u), leksik usul va vositalar (shakdosh, zid ma'noli so'zlar, barqaror birikmalar, o'xshatish, metafora va ramzlar), morfologik usul va vositalar(juft so'zlar, takroriy so'z shakllari), sintaktik usul va vositalar(sintaktik omonimiya, polifunksional hamda polisemantik gap bo'laklari, uslubiy takror, sintagmalash usuli) kabilardan keng foydalaniladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbek tilining izohli lug'ati. Ijild. Toshkent O'zbekiston. 2020.b-87.
- 2.O'zbek tilining izohli lug'ati. I jild. Toshkent. O'zbekiston. 2020.b-533.
- 3.Ulug'bek Hamdam "Muvozanat"roman. Toshkent Yangi asr avlodi. 2020. B-

83

